

## PENSIYA TA'MINOTINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

**Raxmonov Nuriddin Muxammadjonovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13340492>

*Annotatsiya.* Ushbu tezisdagi, O'zbekistonda pensiya ta'minotining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, pensiya ta'minoti tizimini isloh etish va takomillashtirish va bu jarayonda xorij tajribasidan foydalanish xususida so'z boradi.

*Kalit so'zlar:* pensiya ta'minoti, ijtimoiy himoya, mehnat staji, pensiya tizimi.

## SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF ENSURING THE FINANCIAL STABILITY OF PENSION PROVISION

*Abstract.* This thesis talks about ensuring the financial stability of pension provision in Uzbekistan, reforming and improving the pension provision system and using foreign experience in this process.

*Key words:* pension provision, social protection, length of service, pension system.

## НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ПЕНСИОННОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

*Аннотация.* В данной дипломной работе говорится об обеспечении финансовой устойчивости пенсионного обеспечения в Узбекистане, реформировании и совершенствовании системы пенсионного обеспечения, использовании зарубежного опыта в этом процессе.

*Ключевые слова:* пенсионное обеспечение, социальная защита, стаж, пенсионная система.

---

Pensiya ta'minoti tizimini isloh etish va takomillashtirish, shuningdek, pensiya tizimlarini tashkil qilish borasida ko'plab olimlar o'z qarashlarini bayon qilishgan. Jumladan, iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureati R.Diamond pensiya tizimini yaratishdagi turli xil yondashuvlarning mehnat bozoriga, jamg'armalarga va iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilgan.

O'zining "Iqtisodiy nazariya, soliq va pensiya siyosati" nomli tadqiqotida majburiy pensiya sug'urtasini chuqur tahlil qilgan.

N.Borisenko fikricha "Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sabablarga ko'ra ishdan yoki doimiy daromad manbaidan mahrum bo'lishi natijasida moliyaviy ahvolidagi yomonlashishi, shuningdek yordamga muhtoj bo'lgan oila a'zolarining tibbiy-ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan

ehtiyojini qondirishda qo‘shimcha xarajatlarga bog‘liqligi ijtimoiy xavf yoki ijtimoiy risk deb ataladi”15.

Jahon banki tadqiqotchilaridan Pigot va Sanelarning fikricha, “pensiylarni indeksatsiya qilishda 3 ta asosiy jihatni hisobga olish lozim. Birinchidan, indeksatsiya qoidalari shaffof bo‘lishi hamda ishtirokchining qo‘shgan ulushidan katta miqdorda farq qilmasligi lozim.

Ikkinchidan, indeksatsiya rejalashtirilmagan qayta taqsimlashga olib kelmasligi hamda jamg‘arish va ishchi kuchi harakatiga teskari ta‘sir ko‘rsatmasligi lozim. Uchinchidan, davlat pensiya tizimida indeksatsiya dasturlari xususiy pensiya tizimlarida indeksatsiyalash bilan muvofiq bo‘lishi kerak”

Zamonaviy sharoitda ijtimoiy himoya – bu qonun bilan mustahkamlangan ko‘p bosqichli iqtisodiy, ijtimoiy hamda huquqiy tizimdir, shuningdek aholini ijtimoiy risklardan himoya qilishga mo‘ljallangan institutdir.

Aholini ijtimoiy risklardan moddiy himoya qilish iqtisodiy munosabatlarning alohida guruhi hisoblanmish ijtimoiy ta‘minot ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy ta‘minotning asosiy ko‘rinishlaridan biri – bu pensiya ta‘minotidir.

Pensiya ta‘minoti – davlatning eng muhim ijtimoiy kafolatlaridan biridir. Mazkur tizimning yaxshi ishlashi jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va farovonlikni ta‘minlashga xizmat qilsa, aksincha pensiya ta‘minoti tizimidagi muammolar jamiyatda xavfli ijtimoiy keskinliklarni, jumladan daromadlar tengsizligining kuchayishini keltirib chiqarishi mumkin.

O‘zining milliy pensiya tizimiga ega bo‘lgan har qanday davlatda pensiyalar miqdorini izchil oshirib borish, hisoblanadigan pensiyalarning miqdoriga ta‘sir etuvchi salbiy omillarni aniqlash va ularni vaqtida bartaraf etish yuzasidan doimiy islohotlar amalga oshirish muhim masalalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda jahon mamlakatlarida turlicha pensiya ta‘minoti modellari amal qiladi.

O‘zbekistonda avlodlar birdamligiga asoslangan taqsimlanuvchi va jamg‘arib boriladigan pensiya tizimlari faoliyat ko‘rsatadi. Aslida jamg‘arib boriladigan pensiya taqsimlanuvchi pensiya tizimini to‘ldirib turuvchi bo‘g‘in sifatida shakllantirilgan bo‘lsada, amalda bu jarayon natija berayotgani yo‘q. Bu esa pensiya tizimini isloh etishda xorij tajribasini o‘rganishni taqozo etadi.

Pensiyalarni hisoblashda mehnat stajiga e‘tibor qaratish va pensiya yoshini belgilash bo‘yicha mamlakatga xos va mos bo‘lgan xorij tajribalarini o‘rganish va amalda qo‘llash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoda pensiya yoshiga yetganidan so'ng ishlagan vaqtidagi olgan daromadlarini qaytarish darajasiga qarab, davlat pensiya ta'minotining shartli ravishda uchta turini ajratish mumkin.

1. Yuqori darajada daromadni qoplaydigan davlat pensiya ta'minoti – bunda to'liq mehnat (sug'urta) stajiga ega bo'lgan yoki mamlakatda doimiy istiqomat qiluvchi (15-45 yosh) pensionerlar o'rtacha ish haqining 50 foizdan ortiq miqdorida pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar. Ushbu davlat pensiya ta'minotiga ega bo'lgan mamlakatlar quyidagilar hisoblanadi:

Avstriya (45 yil davomida sug'urta badallari to'lagan bo'lsa pensiya miqdori daromadining 89 foizini tashkil qiladi), Ispaniya (35 yil davomida sug'urta badallari to'lagan bo'lsa pensiya miqdori daromadining 83 foizini tashkil qiladi), Italiya (40 yil davomida sug'urta badallari to'lagan bo'lsa pensiya miqdori daromadining 92 foizini tashkil qiladi), Germaniya (45 yil davomida sug'urta badallari to'lagan bo'lsa pensiya miqdori daromadining 52 foizini tashkil qiladi), Portugaliya, Turkiya, Argentina va boshqalar.

2. O'rtacha darajada daromadni qoplaydigan davlat pensiya ta'minoti – bunda to'liq mehnat (sug'urta) stajiga ega bo'lgan yoki mamlakatda doimiy istiqomat qiluvchi (35-45 yosh) pensionerlar o'rtacha ish haqining 50 foizigacha bo'lgan miqdorda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar. Ushbu turga Yangi Zelandiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Polsha, Chili davlatlari pensiya ta'minotlari tizimi misol bo'la oladi.

3. Past darajada daromadni qoplaydigan davlat pensiya ta'minoti – bunda to'liq mehnat (sug'urta) stajiga ega bo'lgan yoki mamlakatda doimiy istiqomat qiluvchi (15-45 yosh) pensionerlar o'rtacha ish haqining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdorda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar. Ushbu turga Norvegiya, Kanada davlat pensiyalari kiradi.

Pensiya tizimida ishtirok etish va moliyalashtirish shakllariga qarab pensiya ta'minoti majburiy va ixtiyoriy shakllarda namoyon bo'ladi.

Majburiy pensiya ta'minoti aholining keksayganda, mehnat qobiliyatini qisman yoki butunlay yo'qotganda, boquvchisidan mahrum bo'lganda va boshqa hollarda ularni ijtimoiy himoya qilish borasida davlat ijtimoiy kafolatining amalga oshirilishi tushuniladi. Majburiy pensiya ta'minoti orqali pensiya to'lash belgilangan qonunchilik asosida amalga oshiriladi.

O'zbekistonda 1993-yil 3-sentyabrda qabul qilingan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun doirasida davlat pensiya ta'minoti tashkil etildi va tarti'nga solinmoqda.

Xorij tajribasida majburiy pensiya doirasida pensiya va nafaqalarni nodavlat tashkilotlar ham to'lashi mumkin (Chili).

Ixtiyoriy pensiya ta'minoti majburiy pensiya ta'minoti doirasida to'lanadigan pensiyalar miqdorini oshirish va yanada takomillashtirish maqsadida tashkil etilgan. Ixtiyoriy pensiya ta'minoti odatda xususiy sektor orqali ta'minlanadi. Ishtirok etish esa ixtiyoriy hisoblanadi.

Pensiya bilan qamrab olish darajasiga qarab pensiya ta'minotining quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi:

umummilliy (universal) – ish bilan band bo'lgan yoki ma'lum bir daromadga ega bo'lgan barcha shaxslarni qamrab oladi;

kasbiy yoki korporativ – alohida sohalar yoki kompaniyalar xodimlarini qamrab oladi;

hududiy – qat'iy o'rnatilgan mehnat stajiga ega bo'lgan yoki o'sha hududda muayyan (qat'iy belgilangan yilda) muddatda yashagan shaxslarni qamrab oladi;

individual (shaxsiy) – alohida shaxslar uchun mo'ljallangan.

Pensiya ta'minotining mazkur shakllari har bir davlatning tuzilishiga hamda pensiya ta'minotining xususiyatlariga qarab farqlanishi mumkin.

Pensiyalarni hisoblashda mehnat staji (sug'urta staji) muhim ahamiyatga ega. Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida yangi tahrirda qabul qilingan nizomda “ish staji – mehnat daftarchasi (elektron mehnat daftarchasi) va ish joyidan, xizmatdan, o'qishdan yoki arxivdan berilgan boshqa hujjatlar bo'yicha aniqlangan, ishdagi tanaffuslardan qat'i nazar, qonunchilikka muvofiq pensiya ta'minoti huquqini beradigan mehnat faoliyati va boshqa faoliyatning umumiy davomiyligidir”.

Maxsus ish staji degan tushuncha ham mavjud bo'lib, xalq xo'jaligining muayyan tarmoqlarida, kasblar va lavozimlarda qonunchilikka muvofiq imtiyozli pensiya ta'minoti huquqini beradigan mehnat faoliyati tushuniladi.

Har bir davlatning oldida turgan muhim vazifalaridan biri pensiyalarning xarid qobiliyatini hamda real qiymatini saqlab turish hisoblanadi”<sup>31</sup>. Pensiya tizimlarini tashkil qilishning samarali yo'llaridan biri xodimning pensiyaga chiqishida daromadga nisbatan belgilangan darajadagi pensiyaning olishi va uning miqdori pensionerning butun hayoti davomida ushbu darajasini saqlash turish lozim.

## REFERENCES

1. Qosimova G., Botirov A. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. Monografiya. – T.: “Tamaddun”, 2015. – 108 b.

2. Vahobov A., Majidov N. Jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasining O'zbekistonda investitsiya siyosatini amalga oshirishdagi roli. Monografiya. – T.: “Universitet”, 2017. – 128 b.
3. Qosimova G., Sholdarov D. Pensiya ta'minotini mablag'larini boshqarish. Monografiya. – T.: “TMI”, 2017. – 225 b.